



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY  
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Самарқанд вилояти

703003, Samarcand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel:(66) 233-03-89, 233-05-53, E-mail: sam.expert@bk.ru, www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: ILMURATOV SHOKIR MARDIYEVICH

Sana:25-08-2023 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 119560**

**Obyekt nomi** « Samarqand shahar So`g'diyona maskani 59-uy (1,2, yo'lagi) liftlarini mukammal ta'mirlash»

**Buyurtmachi** - Samarqand viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» DUK.

**Bosh loyihachi** - "Plans BBB Project" MChj

**Litsenziya** AL-1093 son 09.01.2019 yil.

**Moliyalashtirish manbai** - Mahalliy byudjet

**Bosh pudratchi** - Tender asosida

**Qurilish turi** Mukammal ta`mirlash.

**Murojaat raqami:** № 113738

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021-2027 yillarda respublikadagi ko`p qavatli kvartirali uylarning lift uskunalarini ta`mirlash va yangilashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida" gi 12.06.2020 yil 376 -sonli qarori.

1.2. Samarqand viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» DUK direktori A.Ilmuratov tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig`i.

1.3. Samarqand viloyat hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» DUK direktori A.Ilmuratov tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Albom 1 - Ishchi loyiha.

2.2. Kitob 1 - Joriy narxlarda resurslar smetasi. Ish hajmlari ro'yxati.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

***3.1. Loyihada quyidagilar amalga oshirilgan:***

Yaroqsiz lift uskunalarini yangisiga almashtirish.

Yaroqsiz temir eshikni yangisiga almashtirish.

Yaroqsiz deraza romini yangi PVX deraza romiga almashtirish.

Beton styajka qilish ishlari.

Plyastirlarni tunkafon yordamida qoplash ishlari.

### **3.2. Smeta qismi:**

Ishlar qiymatini hisoblash Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida" gi 261сонли qarori, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 12-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida" gi 226-sonli qarori va SHNQ 4..01.16-09 ga muvofiq shartnoma joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalariga muvofiq resurs usulida amalga oshirildi.

Obyektning qiymati joriy narxlarda "O'zbekiston Respublikasi qurilish ishlab chiqarishida foydalilanidigan moddiy-texnik resurslar uchun joriy narxlар katalogi" dan foydalangan holda resurs usulida hisob-kitob hujjatlari asosida aniqlanadi., ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji-sotish narxi, birjalardagi narxlар va buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra (Samarqand viloyat hokimi o'rinnbosari A.Shukurov tomonidan tasdiqlangan Samarqand viloyati ishchi komissiyasining joriy narxlardagi mashina va mexanizmlar narxlari, qurilish materiallari va asbob-uskunalar bo'yicha kelishuv bayonnomasi).

Mehnat xarajatlari (1 kishi/soat uchun) O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Samarqand viloyati bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil 1-choraklik bilan bo'lgan davrda "Qurilish" tarmog'ida o'rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalarni hisobga olgan holda 22 565, 525 so'm qabul qilindi.

## **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

### **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

### **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ekspertizaning izohlari va takliflariga ko'ra, smeta hujjatlariga quyidagi tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- mash/soat resurs ko'rsatkichlari, odamlar/soat mehnat xarajatlari aniqlandi;
- qurilish materiallari va buyumlarga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi;
- materiallarni tashish xarajatlari aniqlandi;
- pudratchining boshqa xarajatlari aniqlandi;
- buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan joriy shartnoma narxlarda obyektning hisob-kitob qiymati QQS bilan 630 314 569 so'm va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz, ish va xarajatlar hajmini aniqlashtirish hisobiga 34 381 671 so'mga QQS bilan kamaytirildi. Ekspertizaning izohlari va takliflari bo'yicha tuzatilgandan so'ng, obyektning hisob-kitob qiymati joriy shartnoma narxlarda QQS bilan 595 932 898 so'm va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz tashkil etdi. Shu jumladan:
  - uskunalar transport sarf-xarajatlari bilan bиргаликда - 422 343 354 so'mni;
  - qurilish materiallari, ashyolari va konstruktisiyalar transport sarf-xarajatlari bilan bиргаликда - 11 291 297 so'mni;
  - asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblaganda - 78 515 686 so'mni;
  - mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar - 1 669 062 so'mni;

- pudratchining boshqa sarf-xarajatlari 18,11 % - 16 566 312 so'mni;
- sug'urta harajatlari - 1 697 234 so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i 12% - 63 849 953 so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari:

Buyurtmachining boshqa harajatlari - 29 796 645 so'm (ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi).

Shaffof qurilish fondi - 297 966 so'm (ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi).

6.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-punktiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

6.3. Loyerha smeta hujjatlarida keltirilgan ish hajmlari qiymati bo'yicha, shuningdek loyerha smeta qiymatlari kelib chiqishi sabab va asos tarzida taqdim qilingan naxr - navolar bo'yicha barcha javobgarliklar bosh buyurtmachi (shuningdek, ma'lumotlarni taqdim qilishda va ishlab chiqishda qatnashgan loyerha tasjkiloti ham) zimmasiga yuklatiladi.

#### 6.4. Buyurtmachiga:

- bajarilgan ishlar uchun o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda pudratchining tasdiqllovchi hujjatlarga asosan haqiqatda sarflangan qurilish mashinalari va mexanizmlari narxi, moddiy resurslar qiymati, mehnat xarajatlari va boshqa haqiqiy harajatlar qiymatini hisobga olish tavsiya etiladi;
- hujjatlar ekspertiza ko'rígiga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim etildi. Loyerha-smeta hujjatlarini belgilangan tartibda tasdiqlashdan avval barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish ta'minlansin;
- yakuniy qiymatni buyurtmachi va pudratchi o'zaro qurilish oxirida, nazorat o'Ichovining natijasi bo'yicha amalda bajarilgan ish hajmiga qarab belgilanadi;
- obyekt birlamchi yong'inga qarshi asbob-uskunalar bilan ta'minlansin;
- asbob, uskuna va mebel narxlari ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi;

6.5. Loyerha mualliflari ekspertiza tavsiyasiga binoan Buyurtmachiga tuzatilgan chizmalar va smeta hujjatlarini topshirishlari kerak.

6.6. Loyerha smeta hujjatlarida berilgan ish tartiblari va hajmlari bo'yicha hosil bo'lgan ish hajmlariga nisbatan narx navolar jami qiymati bosh buyurtmachining rozilik xati va nuqsonlar dalolatnomasi asosida qabul qilinganligi keltirilgan.

6.7. Loyerha hujjatlarida berilgan yo'lovchi ko'tarib-tushirish mexanizmini o'rnatish va unga tegishli barcha material-mexanizmlarni o'rnatish va ishga tushirish ishlari gacha bo'lgan ish turlari bo'yicha tariflar to'liq hajmdagi «ishga tushirish ishlari»ning xarajatlari bilan hisobga oladi, smeta hujjatlarida foydalanilga ushbu ratsenkalar tarkibida quyidagi ish turlari va harajatlari o'rin olgan, ya'ni:

- texnik hujjatlarni o'rganish, ishga tushirish bo'yicha ish dasturini tayyorlash, zarur o'Ichov vositalari, sinov uskunalari va moslamalar parkini tayyorlash;
- uskunaning holatini, o'rnatishning to'g'rilibini va kuchlanish bilan amalga oshirilgan ulanishlar sifatini tekshirish;
- avtomatik kalitlarga, kontaktli va kontaktsiz datchiklarga, lift haydovchisining asenkron elektr motorlariga va avtomatik eshiklarga, tormoz majmuasi, tormozlash sxemalari. agregatlar va

mexanizmlarning holatini, yo'nalishini, tezligini, sekinlashishini, aniq to'xtashini, eshikni avtomatik boshqarishni boshqarish, ko'taruvchi vosita uchun o'rnatilgan haroratni muhofaza qilish bloki, signalizatsiya uskunalarini;

- elektr jihozlari va kommunikatsiyalarining alohida agregatlari va bloklarini (dvigatel xonasi - val - kabina) sozlash;
- lift ishlab chiqaruvchilarining texnik hujjatlarida belgilangan talablarga javob berish uchun bo'sh va yuk ostida ishslashning barcha rejimlarida to'liq yig'ilgan sxema bo'yicha elektr qurilmalarini, aggregatlarini, sxemalarini individual sinovdan o'tkazish;
- liftlarni kompleks sinovdan o'tkazish, loyihada va texnik nazorat organlarining talablarida nazarda tutilgan barcha rejim va hajmlarda barqaror ishslashini ta'minlash;
- elektr o'lchovlari bayonnomalarini rasmiylashtirish, tugallangan ishga tushirish ishlarini qabul qilish dalolatnomasi va ularni ekspluatatsiya xizmatiga taqdim etish.

Eslatma: Byudjet hujjatlarini tuzishda ushbu koeffitsientlardan foydalanishi ortidan tashkil etadigan harajatlarni to'g'ri va maqsadli yo'naltirilganligini aniqlash, ish jarayonlari yakunida bosh buyurtmachi nuqsonlar dalolatnomasiga keltirilgan ish turlariga va yuqorida izoxlarga asosan loyiha ma'lumotlari yoki ishlarni bajarilganligi va sifatini belgilovchi yakuniy akt va loyiha bilan solishtirib, tasdiqlanishi va qabul qilinishi kerak (asos: tex-chast va SHNQ 4.17.03).

6.8. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

## **7. Xulosalar.**

7.1. Ishchi loyiha: "Samarqand shahar So`g'diyona maskani 59-uy (1,2, yo'lagi) liftlarini mukammal ta'mirlash" ishchi loyihasi ekspertiza ko'rigi natijalari va 6.2., 6.3., 6.4. va 6.5 bandlardagi izohlarni hisobga olgan holda ushbu smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-sod, 03.07.2003 yildagi 302-sod qarorlariga va SHNQ 4.01.16-09 ga muvofiq qurilish qiymati tavsiyaviy tusga ega bo'lib Buyurtmachining bajarilgan ishlar uchun pudratchi bilan o'zaro hisob-kitob qilish uchun asos bo'la olmaydi. Buyurtmachi pudratchi bilan birgalikda nazorat o'lchovi natijalarini hisobga olgan holda belgilangan tartibda asoslovchi hujjatlarga asosan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi. Sharhnomalarxi va bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha yakuniy qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

**Bosh mutaxassis:** Abdiyev Mirzabek Saitmurodovich

**Ishtirokchi ekspertlar:**

IZZATULLAYEV BEXRUZJON XXX

RASHIDOV ELYOR ISMAT O'G'LI

Договор №1752059\_национальный\_магазин [Faylni ko'rish](#)

Договор №1752059\_национальный\_магазин [Faylni ko'rish](#)